


Bozor korreksiya bosqichida


QOG'OZLAR BO'YICHA STATISTIKA

Tiker	18.07.2025	25.07.2025	%	YTD	Hajm, mln so'm
TSMI Index	688,92	650,31	-5,60%	-2,68%	563,2
URTS	4 199,99	4 002,00	-4,71%	9,64%	218,3
UZTL	5 898,98	5 490,00	-6,93%	35,56%	25,4
HMKB	26,54	28,87	8,78%	18,37%	70,5
UZMK	3 989,00	3 988,00	-0,03%	-7,26%	21,6
QZSM	1 050,00	1 044,10	-0,56%	-30,39%	193,2
CBSK	2,18	2,18	0,00%	122,45%	26,1
UNVB	11 700,00	7 520,00	-35,73%	-15,51%	8,2

TSMI DINAMIKASI, 1-YILLIK



USD/UZS DINAMIKASI, 1-YILLIK



FOND BOZORIDAGI MUHIM VOQEALAR

Kuzatilayotgan davrda **Tashkent Stock Market Index (TSMI)** koʼrsatkichi 5,60 foizga pasayib, 650,31 punktni tashkil etdi, bu benchmarkning 7 ta tarkibiy qismidan 5 tasining pasayishi bilan bogʼliq. Shu bilan birga, savdolarning umumiy hajmi oʼtgan haftaga nisbatan 4,6% ga oshib, 563,2 mln soʼmni tashkil etdi.

Eng katta oʼsishni **Hamkorbank (HMKB)** koʼrsatdi, uning kapitalizatsiyasi 8,78% ga oʼsdi. Bozor bankning birinchi yarim yillikdagi kuchli moliyaviy hisobotiga ijobiy munosabat bildirdi. Emitentning qimmatli qogʼozlari bilan savdolar 28,30 - 28,97 soʼm oraligʼida boʼlib, 28,87 soʼm darajasida yakunlandi.

Hisobot davrida eng katta pasayishni **Universalbank UNVB** aksiyalari koʼrsatdi, ular oʼtgan haftadagi yopilish darajasining 35,73 foizni yoʼqotdi. Davr oxiriga kelib, narx 7 520 soʼmgacha pasaydi - bu oxirgi marta joriy yilning may oyida qayd etilgan minimal koʼrsatkichdir.

Oʼztelekom (UZTL) aksiyalari oʼsish trendini pasayish trendiga oʼzgartirib, haftani 6,93% ga pasayish bilan yakunladi. Davr yakuniga koʼra, bir dona aksianing narxi 5 490 soʼmni tashkil etdi.

Tovar-xomashyo birjasi (URTS) ham shunday dinamikani koʼrsatdi - aksiyalar kotirovkalari 4,71% ga pasayib, iyul oyi boshidagi darajaga qaytdi.

Oʼzmetkombinat (UZMK) va **Qizilqumsement (QZSM)** aksiyalari biroz pasayishni koʼrsatdi - tegishli ravishda 0,03% va 0,56% ga. Shu bilan birga, QZSM qogʼozlari boʼyicha savdo faolligi sezilarli darajada oshdi: bitimlar hajmi 193,2 million soʼmga yetdi, bu oʼtgan haftadagi koʼrsatkichdan 7 barobar koʼpdir.

"TOSHKENT" RFBDA MAVJUD LIKVID OBLIGATSIYALAR

Tiker	Jamiyat	Yillik daromad	Soʼndirish sanasi	Soʼndirish kunigacha
ACMT1B	«Agat Credit mikromoliya tashkiloti» MChj	29,0%	4/2026	251
ACMT1B2	«Agat Credit mikromoliya tashkiloti» MChj	28,0%	7/2026	363
DMMT2B	«Delta mikromoliya tashkiloti» MChj	28,0%	3/2027	600
UZUMN2B	«MAKESENSE» MChj XK	25,0%	2/2027	571

IQTISODIYOT

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning birinchi yarmida O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti 7,2% ga o'sib, o'tgan yilning shu davridagi ko'rsatkichdan (6,6%) oshdi.

Inflyatsiya sekinlashishni davom ettirdi - iste'mol narxlari indeksi bir yil oldingi 5,2% ga nisbatan 4,2% ni tashkil etdi. Barqaror makroiqtisodiy dinamika fonida aholi real daromadlari o'shishining 11,9% dan 9,5% gacha sekinlashgani qayd etildi, bu esa iste'mol faolligining pasayishidan darak berishi mumkin. Sanoatda ham pasayish kuzatilmogda: o'sish 7,8% dan 6,6% gacha qisqardi. Shu bilan birga, qurilish (+10,7%), chakana savdo (+9,7%), qishloq xo'jaligi (+4%) va xizmat ko'rsatish (+13,3%) sohalarida yuqori faoliy qolmoqda. "Oltin yetkazib berish va xizmatlar" hisobiga 29,2% ga osghan eksport iqtisodiyotga sezilarli hissa qo'shdi. Import esa 7% ga o'sdi. Yuk aylanmasining o'sish sur'ati bir yil avvalgi 4% ga nisbatan 1,8% gacha pasaydi, bu esa logistika faolligining susayishini ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Markaziy bank raisiga rasmiy parlament murojaatini yubordi.

Bunga Prezidentning 2020-yil 12-maydag'i farmoni bilan tasdiqlangan 2020-2025-yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasining qoniqarsiz amalga oshirilishi sabab bo'ldi. Parlament xabarida ta'kidlanishicha, bank sektorini o'zgartirish bo'yicha e'lon qilingan maqsadlarga qaramay, undagi davlat ulushi maqsadli ko'rsatkichlardan anche yuqori darajada qolmoqda. Shuningdek, sektor umumiylar tarkibida xususiy banklar aktivlarining ulushi past darajada saqlanib qolmoqda. Deputatlar o'zgarishlar dinamikasi sustligidan xavotir bildirdilar, bu esa, ularning fikricha,

biznes va aholining zamonaviy moliyaviy xizmatlardan foydalanishini cheklaydi. Ularning fikricha, bu holat biznes va aholining zamonaviy moliyaviy xizmatlardan foydalanishini cheklaydi. Ayniqsa, qishloq joylarda bank infratuzilmasining yetarli emasligi jiddiy muammoga aylandi - yangi kredit tashkilotlarining aksariyati Toshkent shahri va viloyat markazlarida to'planishni davom ettirmoqda.

2025-yilning birinchi yarmi yakunlariga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotidagi pul massasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 32,2% ga o'sib, 312 trillion so'mga yetdi. Biroq, naqd pullar hajmining o'sishiga qaramay (18% ga 59 trln so'mgacha), ularning umumiyl pul massasidagi ulushi pasayishda davom etmoqda - yil davomida 21,1% dan 18,9% gacha. Yanvar-iyun oylarida banklarning naqd pul aylanmasi 23% ga o'sib, 563 trln so'mni tashkil etdi. Shundan 277 trln so'm tushumlarga, 286 trln so'm naqd pul berishga to'g'ri kelgan. Kassa xarajatlarning asosiy yo'nalishlari bankomatlar orqali naqd pul yechish (45%) va chet el valyutasini sotib olish (22%) hisoblanadi. Naqd pulsiz operatsiyalarning sezilarli o'sishi kuzatilmogda. Bank kartalariga tushumlar 676 trillion so'mni (+40%) tashkil etdi, bunda ushbu summaning atigi 19% naqdashtirildi, bu 2024-yildagi ko'rsatkichdan 4% punktg'a past. Pul aylanmasida naqd pul ulushining kamayishi iqtisodiyotning astasekin naqd pulsiz hisob-kitoblardan keng foydalanishga o'tishi bilan bog'liq. Buni terminallar orqali amalga oshirilgan operatsiyalar ulushining 41% dan 43% gacha o'sishi ham tasdiqlaydi. Shuningdek, MB yuqori talab fonida qo'shimcha 5,2 trln so'm naqd pul muomalaga chiqarilganini ma'lum qildi.


KORPORATIV YANGILIKLAR

S&P Global Ratings xalqaro agentligi "Kapitalbank" ATBning uzoq muddatli reytingini B+ darajasidan BB- darajasiga ko'tarib, qisqa muddatli reytingni B darajasida tasdiqladi. S&P 2025-yil oxirigacha bankning yuqori rentabelligi (ROE 25-27%) va yuqori foiz marjasni (8-8,5%) saqlanib qolishini kutmoqda. Kapitalbankning chakana depozitlar bozoridagi ulushi 18,1% ga yetdi, bu uning tizimli ahamiyatga ega o'yinchi maqomini tasdiqlaydi. Tahsilchilar kredit xatarlarini boshqarish samaradorligini alohida ta'kidladilar: 2024-yilda muammoli kreditlar ulushi 4,5% gacha o'sganiga qaramay, bu ko'rsatkich bozordagi o'tacha ko'rsatkichdan pastligicha qolmoqda. Shuningdek, bankning raqamlari rivojlanishini kuchaytiruvchi va mijozlar ma'lumotlari hamda kross-sotuvlarga kirish orqali raqobatbardosh ustunliklarni ta'minlovchi Uzum ekotizimiga integratsiyalashuvi ijobji baholandi.

Qozog'istonning Halyk Bank banki O'zbekistonning Click to'lov servisining 49% ulushini 176,4 mln dollarga sotib oldi. Bunga javoban Click aksiyadorlari sho'ba korxonasi Tenge Bank'dagi suiddi

shunday ulushni 60,76 million dollarga sotib oladi. Bitim strategik hamkorlik sifatida rasmiylashtirilgan bo'lib, unda ikkala kompaniya ham mustaqillikni saqlab qoladi. Tenge Bank bank mahsulotlarining Click ilovasiga integratsiyalashuvi 20 milliondan ortiq foydalanuvchi va 70 ming biznesni moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati bilan ta'minlaydi. Ishtirokchilar regulyatorlar bilan kelishilgandan so'ng bitimi yakunlashni rejajalstirmoqda.

CitiBank Markaziy Osiyoda o'z vakolatxonasini kengaytirmoqda. Xalqaro CitiBank Markaziy Osiyoda o'z vakolatxonasini kengaytirmoqda. Bu haqda moliya tashkiloti vakili Grant Karson ma'lum qildi va bu qadam bankning "mijozlarga yaqinroq bo'lish va global imkoniyatlardan foydalanish" istagini aks ettirishini ta'kidladi. Vakolatxonani ro'yxatdan o'tkazish O'zbekiston Markaziy banki tomonidan 2025-yil iyul oyida akkreditatsiyadan o'tkazilgan. Turkiyaning CitiBank AS vakolatxonasi mahalliy bozorni tahlil qilish hamda regulyatorlar va moliya institutlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish bilan shug'ullanadi..

TSMI INDEKS DINAMIKASI, 1-YILLIK

TAHLIL DOIRASIDAGI AKSIYALAR BO'YICHA JORIY TAVSIYALAR*

Tiker	Jamiyat nomi	Soha	Oxirgi narxi	Maqsadli narx	Joriy salohiyati	Tavsiya
URTS	"Tovar-xom ashyo birjasi" AJ	Fond	4 002,00	4 311,00	7,7%	BUY
SQBN	"O'zsanoatqurilishbank" ATB	Moliya	9,50	12,71	33,8%	BUY
HMKB	"Hamkorbank" ATB	Moliya	28,87	38,70	34,0%	BUY
UZMK	"O'zmetkombinat" AJ	Metallurgiya	3 988,00	7 300,00	83,0%	BUY
UZMT	"UzAuto Motors" AJ	Avtomobilsozlik	59 000,00	99 700,00	69,0%	BUY
UZTL	"O'zbektelecom" AK	Telekommunikatsiya	5 490,00	7 400,00	34,8%	BUY
BIOK	"Biokimyo" AJ	Kimyoiy sanoat	17 999,95	30 979,00	72,1%	BUY
IPTB	"Ipoteka-Bank" ATIB	Moliya	1,13	1,27	12,4%	HOLD
TRSB	"Trastbank" XAB	Moliya	8 000,00	3 974,00	-	SELL
UNVB	"Universalbank" ATB	Moliya	7 520,00	4 186,00	-	SELL

*hisobot davri davomida maqsadli narxlari o'zgarishi mumkin

Ushbu material "Freedom Finance" MCHJ XK (O'zbekiston) kompaniyasi tahlilchilari tomonidan tayyorlangan. Har bir tahlilchi ushbu hisobotda biron bir qimmatli qog'oz yoki emitentga nisbatan keltirilgan barcha pozitsiyalar ushbu tahlilchining tahlil qilinayotgan har qanday emitent/qimmatli qog'ozga nisbatan shaxsiy qarashlarini aniq aks ettirishini tasdiqlaydi. Ushbu hisobotda keltirilgan har qanday tavsiyalar yoki fikrlar ushbu hisobot e'lon qilish paytidagi fikr-mulohazalardir. Ushbu hisobot Kompaniyadan mustaqil ravishda tayyorlangan va ushbu hisobotda keltirilgan har qanday tavsiyalar va fikrlar faqat tahlilchining nuqtai nazarini aks ettridi. Bayon etilgan faktlarning aniqligini, taqdim etilgan tavsiyalar va fikr-mulohazalarning haqqoniyligi va to'g'riliгини та'minlash uchun ehtiyyotkorlikka rioxalarning bo'lsa-da, tahlilchilarining hech biri, Kompaniya, uning direktorlari va xodimlari ushbu hisobot mazmunining haqiqiyligini aniqlamaganlar va shunga ko'ra, tahlilchilarining hech biri, Kompaniya, uning direktorlari va xodimlari ushbu hisobot mazmuni uchun javobgar bo'lmaydilar, shu sababli ushbu hisobotda taqdim etilgan ma'lumotlarni aniq, adolatli yoki to'liq deb hisoblash mumkin emas. Hech qanday shaxs ushbu hisobotdan yoki uning mazmunidan har qanday foydalanish natijasida kelib chiqadigan yoki ushbu hisobot bilan bog'liq holda yuzaga keladigan har qanday yo'qotish uchun javobgar bo'lmaydi. Har bir tahlilchi va (yoki) u bilan bog'liq shaxslar ushbu hisobotda mavjud bo'lgan ma'lumotlarga, shuningdek, ushbu hisobotni tayyorlash uchun asos bo'lgan tahliliy ish natijalariga nisbatan ular chop etilishidan oldin harakatlarni amalga oshirish yoki ulardan foydalanishlari mumkin. Ushbu hujjatda keltirilgan ma'lumotlar kompaniyaning qimmatli qog'ozlariga nisbatan har qanday oluvchi yoki boshqa shaxs tomonidan investitsiya qarorlarini qabul qilish uchun asos bo'la olmaydi. Ushbu hisobot O'zbekiston Respublikasining qiyomatni baholash faoliyati sohasidagi qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan maqsadlarda Kompaniya, uning aktivlari yoki qimmatli qog'ozlari qiyomatining bahosi bo'lib hisoblanmaydi.